

**G'ARBIY TURK XOQONLIGIDAGI "O'N O'Q" TIZIMI***Termiz davlat universiteti**Tarix fakulteti 3-kurs talabasi**Musurmonova Mohinur Ulug'bek qizi**Honorrky@gmail.com*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida shakllangan "O'n o'q" tizimining vujudga kelishi, siyosiy-ma'muriy tuzilishi hamda davlat boshqaruvidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda tizimning qabila ittifoqlarini birlashtirishdagi ahamiyati, ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi vazifasi va harbiy boshqaruvdagi xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, "O'n o'q" tizimining Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri ham tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Maqola natijalari G'arbiy Turk xoqonligining davlat boshqaruvi va turkiy xalqlar davlatchiligi tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** "O'n o'q" tizimi, turkiy qabilalar, qabila ittifoqi, davlat boshqaruvi, siyosiy tuzum, yabg'u, tudun, elteber, harbiy ittifoq, ko'chmanchi imperiyalar, turk davlatchiligi, siyosiy markazlashuv.

**Kirish :** G'arbiy Turk xoqonligi Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan yirik turkiy davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu davlat VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligining sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linishi natijasida shakllangan bo'lib, uning hududi Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Movarounnahrning ayrim qismlarini o'z ichiga olgan. G'arbiy Turk xoqonligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan o'z davrining kuchli davlatlaridan biri sifatida tarix sahnasida muhim rol o'ynagan.

Xoqonlikning davlat boshqaruvi tizimida "O'n o'q" tizimi alohida ahamiyat kasb etgan. Mazkur tizim qabila va urug'larni siyosiy hamda harbiy jihatdan birlashtirishga xizmat qilgan bo'lib, davlat ichidagi barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita vazifasini bajargan. "O'n o'q" tizimi nafaqat davlat tuzumi, balki qabilalar ittifoqining ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etgan. Mazkur tizimni o'rganish turkiy davlatchilik tarixi va Markaziy Osiyo siyosiy jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Turk xoqonligi qo'shini asosan ko'chmanchi turkiy qabilalarning harbiy an'analari asosida shakllangan bo'lib, yuqori darajadagi harakatchanlik, intizom va jangovar mahorati bilan ajralib turgan. Qo'shin tuzilishida o'nlik tizimi muhim o'rin egallab, askarlar o'nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga bo'lingan holda boshqarilgan. Bu tizim harbiy kuchlarni tez safarbar etish, jang vaqtida tartibni saqlash hamda markaziy hokimiyat nazoratini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, otliq

qo'shinlar Turk xoqonligining asosiy harbiy tayanchi hisoblangan. Turk xoqonligidagi qo'shin tuzilishini o'rganish orqali qadimgi turkiy xalqlarning harbiy san'ati, davlat boshqaruvi va strategik tafakkuri haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, ushbu harbiy tizim keyingi turkiy davlatlar armiyasining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli Turk xoqonligi qo'shinining tashkil etilishi va boshqaruv usullarini tadqiq etish tarix fanida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili:**

G'arbiy Turk xoqonligidagi "O'n o'q" tizimi masalasi turkiy xalqlar davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Mazkur tizimning siyosiy, harbiy va ma'muriy mohiyatini o'rganishda qadimgi turk bitiktoshlari, Xitoy yilnomalari hamda arab-fors manbalari asosiy tarixiy manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, "O'n o'q" tizimi haqidagi dastlabki ma'lumotlar Xitoy solnomalari — "Chjou shu", "Suy shu" va "Tan shu" asarlarida uchraydi. Ushbu manbalarda G'arbiy Turk xoqonligining qabila tuzilishi, Dulu va Nushibi qanotlari, harbiy kuchlarning tashkil etilishi hamda qabilalararo munosabatlar haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan. N.Y. Bichurin tomonidan ushbu yilnomalarning rus tiliga tarjima qilinishi turkologiya fanida muhim bosqich bo'lib, keyingi tadqiqotchilar uchun asosiy ilmiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Arab mualliflari, xususan ibn al-Faqih al-Hamadoni, turklar qo'shinining "o'nlik tizim" asosida tashkil topganligini qayd etib, har bir bayroq ostida o'n minglab jangchilar jamlanganini yozadi. Ushbu ma'lumotlar xitoy manbalari bilan o'zaro uyg'unlik kasb etadi va "O'n o'q" tizimining nafaqat siyosiy, balki harbiy-ma'muriy birlik bo'lganligini ko'rsatadi. Mazkur mavzu bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borgan olimlar orasida L.N. Gumilyov, S.G. Klyashtorniy, Y.S. Xudyakov, Y.A. Zuev, T.S. Jumag'abetov kabi tadqiqotchilar alohida o'rin egallaydi. L.N. Gumilyov "Qadimgi turklar" asarida "O'n o'q" tizimini ko'chmanchi imperiyalarning federativ boshqaruv shakli sifatida baholab, uning harbiy-siyosiy ahamiyatini ta'kidlaydi. S.G. Klyashtorniy esa Dulu va Nushibi o'rtasidagi siyosiy raqobatni xoqonlik inqirozining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatadi. Y.A. Zuev va Y.S. Xudyakov tadqiqotlarida esa "O'n o'q" tizimining harbiy tuzilishi hamda qabila boshqaruvi masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, G'. Boboyorovning "G'arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi" nomli tadqiqoti o'zbek tarixshunosligida mazkur mavzuni maxsus o'rgangan muhim ishlardan biri hisoblanadi. Muallif "O'n o'q" tizimini davlat boshqaruvining asosiy siyosiy mexanizmi sifatida tahlil qilib, uning markaziy hokimiyatni mustahkamlashdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Tadqiqotchilar qarashlari o'rtasida ayrim farqlar ham mavjud. Masalan, ayrim olimlar "O'n o'q" tizimini faqat harbiy birlik sifatida baholasa, boshqalar uni federativ-siyosiy boshqaruv tizimi deb hisoblaydi. Xususan, Gumilyov ko'proq harbiy jihatni ta'kidlagan bo'lsa, Klyashtorniy siyosiy-qabilaviy muvozanat masalasiga urg'u beradi.

Menimcha, “O‘n o‘q” tizimi harbiy va siyosiy boshqaruvning o‘zaro uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, uning asosiy vazifasi ulkan hududdagi qabilalarni yagona markaziy hokimiyat atrofida birlashtirishdan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga, tizimning ikki qanotli tuzilishi keyinchalik ichki siyosiy nizolarning kuchayishiga ham sabab bo‘lgan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Mazkur maqolani yoritishda tarixiylik, qiyosiy-tahliliy va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali “O‘n o‘q” tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilindi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida xitoy, arab va zamonaviy tarixshunoslik manbalari o‘zaro solishtirildi. Manbashunoslik usuli orqali yozma manbalarning ishonchliligi va tarixiy ahamiyati o‘rganildi.

### **Tahlil va natijalar:**

Turk xoqonligida qo‘shin “ o‘nlik tizim “ dan tashkil topgan. Buning misolini qadimgi turk bitiktoshlari , Xitoy yilnomalari va arab manbalarida keltirilgan ma’lumotlardan toppish mumkin. Jumladan, Bitiktoshlarda uchraydigan “ o‘n o‘q” atamasining har biri 10 mingdan janchi yetishtirib beruvchi 10 ta turk qabilasi ma’nosida bo‘lgan.<sup>1</sup> Xitoy yilnomalarida Istami xoqonning “ o‘n nafar katta qabilaning boshliqlariga yo‘lboshchilik qilgan holda yuz ming jangchi bilan G‘arbiy o‘lkalardagi Xu mamlakatlarini qo‘lga olish uchun yuborilgan “ ligi aytiladi. Uning beshinchi bo‘g‘in avlodi Ashina Xelu esa “ O‘n qabilani birlashtirib , ularni boshqardi. Jami yuz ming tajribali jangchilari bor edi “. <sup>2</sup> Bu ma’lumotlar G‘arbiy xoqonlik qo‘shini “ o‘nlik tizim “ dan tashkil topganligini tasdiqlaydi. Yana ibn al-Faqih Hamadoniyning “ Axbor al-Buldon “ asarida xalifa Xisham ibn Abdumalik “ Turkular hukmdoriga elchi yuborganda , xoqonning huzurida 10 nafar qo‘lida bayroq ko‘targan otliq hozir bo‘lgani va ularning har biri 10 ming nafar jangchini o‘z bayrog‘i ostida to‘plaganliklari zikr etiladi. <sup>3</sup> G‘arbiy Turk xoqonligida qo‘shin “ o‘nlik tizim “ dan tashkil topganligi turli manbalarda qayd etilgan. Xoqonlik har biri 10 ming nafardan jangchi yetishtirib beradigan 10 ta turkiy qabila nomi bilan “ o‘n o‘q “ deb yuritilganligi ancha-muncha o‘z tasdig‘iga ega.<sup>4</sup>

G‘arbiy Turk xoqonligi qo‘shinlari otlar bilan birgan tuyalardan ham foydalanganligi ham manbalarda o‘z aksini topgan. “ O‘n o‘q “ tizimi xoqonlikda muayyan siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllangan. Birinchidan, ulkan hududni boshqarish uchun markazlashgan , ammo bir vaqtning o‘zida qabilalar manfaatini hisobga oluvchi tizim zarur edi . Ikkinchidan , turkiy jamiyat qabilaviy tuzilishga asoslangan bo‘lib, har bir qabilaning siyosiy ta’sirini muvozanatlashtirish talab qilingan. Manbalarga ko‘ra , “ O‘n o‘q “ atamasi “ O‘nta o‘q “ yoki “ O‘nta

<sup>1</sup> G‘ Boboyorov “ G‘arbiy turk xoqonligining davlat tuzumu” Toshkent. “ Yangi Nashr” 2018-yil. 305-bet

<sup>2</sup> Бичурин . Н. Я Собрание сведений ... II -С 291.

<sup>3</sup> Асадов Ф Арабские источники о турках в раннее средневековье - Баку ,1993 -с 44

<sup>4</sup> G‘ Boboyorov “ G‘arbiy turk xoqonligining davlat tuzumu” Toshkent. “ Yangi Nashr” 2018-yil. 305-306 bet

qabila “ ma’nosini anglatib, xoqon tomonidan o’nta qabila boshlig’iga ramziy “ o’q” berilishi bilan bog’liq. Shuningdek, bu tizim G’arbiy turk xoqonligining ikki qanotli boshqaruv tizimiga asoslangan : Dulu – chap qanot, nushibi – o’ng qanot. Har bir qanot beshtadan qabilani o’z ichiga olgan . Bu esa siyosiy muvozanatni ta’minlash va markaziy hokimyatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shunday qilib , “ O’n o’q” tizimining vujudga kelishining sabablari: hududiy kenglikni samarali boshqarish, qabilalar o’rtasida muvozanat yaratish , harbiy kuchni tizimlashtirish, markaziy hokimyatni saqlab qolish bo’lgan. “ O’n o’q “ tizimi VII asr boshlarida , ya’ni turk xoqonligining parchalanishidan so’ng shakllana boshlagan. Taxminan 603-yildan keyin. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, dastlab G’arbiy Turk xoqonligida qabilalar ikki qanotga ajratilgan bo’lib, keyinchalik ular qayta tashkil qilinib , umumiy hisobda O’nta qabiladan iborat tizimga aylantirilgan. Tizim rivojlanishini uchta bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich – shakllanish davri VI asr oxiri VII boshlariga to’g’ri keladi. Bu davrda turk xoqonligining bo’linishi, G’arbiy qanot mustaqillashuvi, qabilalarning ikki qanotga ajralishi kabi muhim voqealar ro’y bergan. Ikkinchi bosqich – muhtakamlanish davri – VII asrning birinchi yarmiga to’g’ri keladi. Bu davrda “ o’n o’q “ tizimi to’liq shakllandi, harbiy va ma’muriy boshqaruvda qo’llanildi, xoqon hokimyatining kuchayishi ro’y berdi. Uchunchi bosqich – ichki kurashlar davri - VII asrning o’rtalarida to’g’ri keladi. Bu davrda ichki kurashlarga Dulu va Nushibi o’rtasida raqobat, hokimyat uchun kurashlar , tashqi davlatlarning aralashuvi sabab bo’lgan. Asosan Tan sulolasining aralashuvi sabab ziddiyatlar keskinlashgan. Bu jarayonlar natijasida “ o’n o’q” tizimi siyosiy barqarorlikni ta’minlash o’rniga ba’zan ichki ziddiyatlarni kuchaytiruvchi omilga ham aylangan.

Xoqonlikning asosiy qo’shini turkiy urug’lardan iborat bo’lgan.<sup>5</sup> Turk xoqonligida barcha erkaklar harbiy xizmatni bajarishga majbur edi. Xitoy yilnomalarida berilgan ta’rifga ko’ra , “ Jangda qurbon bo’lishni sharaf deb bilishgan, kasallik sabab vafot etish uyat hisoblangan “ .<sup>6</sup> Bu ma’lumot xoqonlikdagi har bir harbiy kishining jangovar ruhda tayyorlanganini ko’rsatadi. Ularning orasida shaxsiy qo’riqchilar – Ashina urug’idan bo’lgan xoqonning zirxli otliq gvardiyasi alohida ajratilgan edi. Mazkur gvardiyalar qo’shinning asosini tashkil etib, armiyaning birmuncha jangovar va zarbdor qismi bo’lgan. Xoqonning shaxsiy qo’riqchilari Xitoy yilnomalarida “ fuli” ya’ni “ bo’ri “ deb atalgan.<sup>7</sup> Turklarning bayroqlari dastasiga ham oltin bo’rining boshi kiydirilgan.<sup>8</sup> Bu bayroq xoqonning o’rda qarorgohi tepasida hilpirab turgan. Xitoy muarrirlari buning sababini turklar o’zlarining kelib chiqishini unutmaganliklari ramzidir, deb izohlaganlar. Shu bilan birga xoqonlik qo’shini

<sup>5</sup> Бичурин . Н. Я Собрание сведений о народах Т..2 -С 323

<sup>6</sup> Бичурин . Н. Я Собрание сведений о народах Т..1 -С 231

<sup>7</sup> Бичурин . Н. Я Собрание сведений о народах Т..1 -С 229

<sup>8</sup> Жумаганбетов Т.С Култ Тенгри как основа государственной идеологии древнетюрского каганата || Восток № 2 М... 2006

tarkibida harbiy jangchilardan tashqari ziroatkor shahar aholisidan tuzilgan yordamchi piyoda va o'tliq otryadlar ham mavjud edi. Ular o'zlarining qurol-aslahalari bilan qurollangan va an'anaviy jang usullarini yaxshi bilishgan.<sup>9</sup> Qo'shin tarkibida Sug'd chokarlarining bo'lishi qal'alarni qamal qilishda qo'l kelgan.<sup>10</sup> Yuqorida ta'kidlaganimizdek xoqonlik qo'shinlari otlar bilan birga tuyalardan ham foydalangan. Xususan, Xitoy rohibi Syuan Szyan Turk xoqoni huzurida bo'lgan paytda qo'shinlarning bir qismi otda, bir qismi tuyada ekanligiga guvoh bo'lgan.<sup>11</sup> Shuningdek, turklar va sosoniylar o'rtasida bo'lib o'tgan Hirot yaqinidagi jangda xoqonlik qo'shini tarkibida jangovar fillar otryadi ham bo'lgan.<sup>12</sup> Qo'shin o'nlik va ikkilik tartibida bo'lishga rioya qilingan. Aniqrog'i har bir otryad 10, 100, 10 000 va 100 000 jangchidan iborat bo'lib, ular o'z navbatida ikkita qanotga bo'lingan hamda 5, 50, 500, va 5000 kishidan tashkil topgan. Bunday otryadlardan iborat butun armiya esa to'las va tardush yoki dulu va nushibi deb nomlanuvchi ikkita qanotga ajratilgan. Bu bo'linmalar boshida jabg'u, kichikroq otryadlar tepasida tegin va eltabar kabilar turgan.<sup>13</sup> G'arbiy Turk xoqonligining ko'plab janglar olib borganiga doir ancha-muncha ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, janglarda aynan qanday taktikalar qo'llanilganiga doir batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan ayrim ma'lumotlar asosida xoqonlik tomonidan muayyan taktikalar amalga oshirilganini tasavvur qilish mumkin. Jang paytida quyidagicha turlin taktikalar qo'llanilishiga duch kelamiz: ba'zan raqib taraflar jangdan oldin o'zaro kelishgan holda kim g'olib, kim mag'lub bo'lishini belgilaydigan ayrim shartlarni bajarishardi.<sup>14</sup> "O'n o'q" tizimi dastlab samarali boshqaruv modeli bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan uning zaif jihatlari namoyon bo'la boshladi. Eng asosiy muammo – Dulu va Nushibi qabilalari o'rtasidagi doimiy raqobat va hokimyat uchun kurash edi. Ayniqsa To'ng Yabg'u xoqon o'limidan keyin bu ziddiyatlar keskin kuchaydi. 630-yillar atrofida qabilalar o'rtasidagi isyonlar va davlat to'ntarishlari xoqonlikni zaiflashtirdi. Bundan tashqari, tashqi bosim, ayniqsa, Tan sulolasi tomonidan, savdo yo'llari ustidan nazorat uchun kurash, mahalliy hokimlarning mustaqillikka intilishi ham inqirozni tezlashtirdi. Xitoy solnomalarida, ayniqsa "Chjou shu" va "Suy shu" manbalarida qayd etilishicha, G'arbiy Turk xoqonligida hokimyat uchun kurash asosan ikki qanot Dul uva Nushibi o'rtasida kechgan. Nushibi qabilalari ko'proq Yettisuv va Sirdaryo hududlarida joylashgan. Dulu qabilalari esa shimoliy va sharqiy hududlarda ustun bo'lgan. Tarixchi S.G. Klyashtorniy ta'kidlaydiki, bu ikki guruh o'rtasidagi raqobat markaziy hokimyatni izdan chiqargan va "o'n o'q" tizimi barqarorligini buzgan. To'ng Yabg'u

<sup>9</sup> Худяков Ю.С., Табалдиев К.Ш. Деревние тюрки С-107

<sup>10</sup> O'zbekistonda harbiy ish tarixidan ( qadimgi davrdan hozirgacha) . " SHARQ" Nashriyot. Toshkent...2012. 47-bet

<sup>11</sup> Зиев Ю.А Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. Алматы. 2002- С 264

<sup>12</sup> Гумилев Л.Н Деревние тюрки . М...1993 С- 128.

<sup>13</sup> Худяков Ю.С Вооружение средневековых коревников ... С 164

<sup>14</sup> G' Boboyorov " G'arbiy turk xoqonligining davlat tuzumu" Toshkent. " Yangi Nashr" 2018-yil. 307-bet

xoqondan keyin markaziy hokimiyat Keskin zaiflashdi . Xoqonlar tez-tez almashdi. Qabila boshliqlari mustaqil qaror qabul qila boshladi. “O‘n o‘q” tizimi markazlashgan boshqaruvni ta’minlay olmay qoldi.<sup>15</sup> Dastlab “o‘n o‘q” tizimi kuchli harbiy tuzilma edi. Ammo inqiroz davrida qabilalar alohida – alohida harakat qildi . Yagona armiya tizimi izdan chiqdi. Tashqi dushmanlarga qarshi kurash samarasiz bo‘ldi. Bu holat xoqonlikning tashqi bosqinlarga qarshi zaiflashuviga olib keldi. “O‘n o‘q” tizimining inqirozi bir omilga bog‘liq emas , balki ichki qabilaviy ziddiyatlar , markazi hokimiyat zaifligi , iqtisodiy raqobat kabi omillar ta’sirida yuz berdi.

**Xulosa:** G‘arbiy Turk xoqonligidagi “O‘n o‘q” tizimi davlatning siyosiy va harbiy boshqaruvida muhim o‘rin tutgan. Ushbu tizim qabilalarni birlashtirish, markaziy hokimiyatni mustahkamlash va qo‘shin boshqaruvini tartibga solishga xizmat qilgan. Biroq Dulu va Nushibi o‘rtasidagi ichki nizolar hamda tashqi bosimlar tizimning zaiflashuviga va xoqonlik inqiroziga olib kelgan. Shunga qaramay, “O‘n o‘q” tizimi turkiy davlatchilik tarixida muhim siyosiy tajriba sifatida katta ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boboyorov G‘. *G‘arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi*. – Toshkent: Yangi Nashr, 2018.
2. Бичурин Н. Я. *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. Т. II. – Москва–Ленинград, 1950.
3. Асадов Ф. *Арабские источники о тюрках раннего средневековья*. – Баку, 1993.
4. Жумаганбетов Т. С. Культ Тенгри как основа государственной идеологии древнетюркского каганата // *Восток*. – Москва, 2006. – №2.
5. Худяков Ю. С., Табалдиев К. Ш. *Древние тюрки*. – Бишкек, 2009.
6. Зуев Ю. А. *Ранние тюрки: очерки истории и идеологии*. – Алматы, 2002.
7. *O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha)*. – Toshkent: Sharq, 2012.
8. Гумилев Л. Н. *Древние тюрки*. – Москва, 1993.
9. Худяков Ю. С. *Вооружение средневековых кочевников Центральной Азии*. – Новосибирск, 1991.

<sup>15</sup> Гумилев Л.Н. Древние тюрки . М...1993 С- 135